



XALQ DEPUTATLARI O'ZBEKISTON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 18-oktabr

VI-89-104-11-161-K/24

O'zbekiston tumani

Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan mazkur tadbirlarga mablag‘lar ajratish to‘g‘risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi KQ-666-IV-sonli “Tashabbusli byudjet jarayonlarini o'tkazish, hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga, shuningdek, Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 16-sentyabrdagi 23-9-19264-son xatiga asosan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan mazkur tadbirlarga mablag‘lar ajratish maqsadida O'zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasi va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari O'zbekiston tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi KQ-666-IV-sonli “Tashabbusli byudjet jarayonlarini o'tkazish, hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori asosida joriy yilning 6-iyulidan 31-avgustiga qadar o'tkazilgan uch bosqichdan iborat jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish jarayoni natijalari bo'yicha “Ochiq byudjet” axborot portalida “ENG KO‘P” ovoz olib, avtomatik tarzda g'olib sifatida tanlab olingan **10ta** takliflarni moliyalashtirish uchun “Tashabbusli byudjet” jamg‘armasidan jami **13 600.0 mln so‘m** mablag‘ ajratilishi to‘g‘risida Xalq deputatlari tuman Kengashining 2024-yil 12-sentyabr kungi VI-88-97-11-161-K/24-sonli qarori qabul qilindi va yuqoridagi takliflar moliyalashtirilishi belgilandi.

Bundan tashqari, 2-mavsumda faol qatnashib, aholisi sonidan ko‘p ovoz to‘plab g'olib bo‘lмаган Karimobod MFYning ichki yo‘llarini ta’mirlash bilan bog‘liq tashabbusi

ham Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan qo'shimcha g'olib deb topildi va **1 mlrd. 360.0 mln. so'm** mablag' respublika byudjetidan ajratilishi belgilandi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 16-sentyabr kungi 23-9-19264-son xati va tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i M.Sattorovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin;

Ishchi guruh xulosasiga asosan ovoz berish bosqichiga o'tkazilgan va faol ishtirok etib, "Ochiq byudjet" axborot portalida qo'shimcha g'olib sifatida tanlab olingan taklif to'liq moliyalashtirib berilsin.

Ushbu taklifni moliyalashtirish bo'yicha "Manzilli ro'yxat" 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin, hamda ijro uchun qabul qilinsin.

Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan ushbu tadbirni moliyalashtirishga yo'naltiriladigan respublika byudjeti mablag'lari tuman hokimligi qoshida ochilgan "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" shaxsiy g'azna hisobvarag'ida jamlansin va ushbu mablag'larni boshqa maqsadlarga sarflanishiga yo'l qo'yilmasin.

2. Tasdiqlangan Manzilli ro'yxat asosida:

-Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (M.Sattorov) tanlab olingan tadbirni moliyalashtirilishini ta'minlash maqsadida buyurtmachi tashkilotga tegishli mablag' manbasi bo'yicha (4017) "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi" maxsus hisobraqami ochilishini;

-Tuman hokimligi hisobxonasi (X.Komilov) Jamg'arma mablag'lari hisobidan tegishli buyurtmachi tashkilotga mablag'lar yo'naltirilishini;

-Buyurtmachi tashkilot ajratilgan mablag'larni loyiha-smeta hujjatlari asosida belgilangan tartibda maqsadli ishlatilishi va amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Xalq deputatlari tuman Kengashi va tuman hokimligi huzuridagi Ishchi guruhga ma'lumot kiritib borilishini ta'minlasin.

3. Tuman hokimligining axborot xizmati rahbari – matbuot kotibi (D.Jabborov) va tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (M.Sattorov) bilan birgalikda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan va "g'olib" deb topilgan ushbu tadbirning moliyalashtirilishi, hamda amalga oshirilishi lozim ishlar bo'yicha ma'lumotlarni "Ochiq byudjet" axborot portaliga joylashtirilishi va keng jamoatchilikka muntazam yoritib borilishini ta'minlasin.

4. Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'larining belgilangan maqsadlarda va samarali foydalanilishi, hamda mablag'larning ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga Ishchi komissiya a'zolari shaxsan javobgarligi eslatib o'tilsin.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish vazifasi xalq deputatlari tuman Kengashining "Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha" doimiy komissiyasi raisi A.Azamov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



YULDASHEV
SHERZOD
AKRAMOVICH

Xalq deputatlari O‘zbekiston tumani
Kengashining
2024-yil 18-oktabrdagi
VI-89-104-11-161-K/24 -son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston tumani bo‘yicha 2024-yil 2-bosqichida qo‘sishimcha g‘olib bo‘lgan loyihalarni Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi
hisobidan moliyalashtirish bo‘yicha

MANZILLI RO‘YXAT

Nº	Tadbirning xos (ID) raqami	Ob‘ekt Aniq manzili	Balansda saqlovchi korxonaning nomi	Amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlar mazmuni	Amalga oshirish qiymati	Buyurtmachi tashkilot nomi
	O‘zbekiston tumani jami				1,360,000,000	
1	48361595011	Karimobod MFY	O‘zbekiston tuman obodonlashtirish boshqarmasi	Aholiga qulaylik yaratish maqasadida qishloqni ichki yo‘llarini ta’mirlash Karimobod MFY	1,360,000,000	Mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati